

**1.** Quyidagi javoblar ichidan noto‘g‘ri fikrni toping.

- A) Geomorfologiya fani Yer yuzi relyefini o‘rganadi.
- B) Glyatsiologiya fani ko‘p yillik muzloq yerlarni o‘rganadi.
- C) Biogeografiya fani tirik organizmlarning Yer yuzida tarqalishini o‘rganadi.
- D) Gidrologiya fani gidrosferani o‘rganadi.

**2.** Qaysi xaritalarda hududning umumiyo ko‘rinishi, relyef, daryolar, ko‘llar, dengizlar, shaharlar, okeanlardagi yirik oqimlar va boshqalar ko‘rsatiladi?

- A) yozuvsiz xaritalar
- B) siyosiy-ma’muriy xaritalar
- C) sodda (sxematik) xaritalar
- D) tabiiy xaritalar

**3.** Qaysi iqlim mintaqasida yoz issiq, quruq; qish iliq, quruq bo‘ladi?

- A) subekvatorial
- B) mo‘tadil
- C) subtropik
- D) tropik

#### **4. Matnni o’qing.**

“Materik foydali qazilmalarga boy. Rudali foydali qazilmalar magmatik va metamorfik tog‘ jinslari tarkibida ko‘p uchraydi. Cho‘kindi jinslar qatlamlarida, asosan, neft, gaz, tosh va qo‘ng‘ir ko‘mir konlari tarkib topgan”.

**Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.**

- A) Afrika
- B) Janubiy Amerika
- C) Shimoliy Amerika
- D) Yevrosiyo

**5.** Quyidagi dengizlarning qaysi biri Hind okeanida joylashmagan?

- A) Timor
- B) Arafur
- C) Yava
- D) Mouson

#### **6. Matnni o’qing.**

Ushbu okean botig‘i eng keksa va Yer po‘stining juda katta maydonini egallaydi. Shunga asoslanib, mustaqil litosfera plitasi tariqasida ajratilgan. Ayni paytda ushbu okean litosfera plitasi o‘rta okean tizmasi zonasida kengaymoqda. Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi okeanga oid ekanligini aniqlang.

- A) Atlantika
- B) Shimoliy Muz

- C) Tinch
- D) Hind

**7.** Milliy bog‘ va qo‘riqxonalarning maydoni bo‘yicha qaysi materik dunyoda birinchi o‘rinni egallaydi?

- A) Shimoliy Amerika
- B) Yevrosiyo
- C) Janubiy Amerika
- D) Afrika

#### **8. Matnni o’qing.**

“Materikda kenglik va balandlik tabiat zonalligi kuzatiladi. Uning tekislik qismida ekvatorial, subekvatorial o‘rmonlar, savannalar, dasht, chalacho‘l, cho‘l va keng bargli o‘rmonlar zonalari shakllangan”. **Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.**

- A) Afrika
- B) Shimoliy Amerika
- C) Janubiy Amerika
- D) Avstraliya

**9.** Mexiko, Lima, Rio-de-Janeyro shaharlari qaysi iqlim mintaqasida joylashgan?

- A) subtropik
- B) mo‘tadil
- C) tropik
- D) subekvatorial

**10.** Avstraliya materigiga oid to‘g‘ri ma’lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Materikning geografik o‘rnini, havo massalari, okean oqimlari, relyefi materik iqlimining o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantirgan. Bu yerda quruq tropik iqlim tipi hukmronlik qiladi. Shuning uchun materikning markazi va g‘arbiy qismlarida yog‘ingarchilik juda kam bo‘ladi.
- B) Materik iqlimining shakllanishida doimiy shamollar — passatlarning ta’siri kuchli. Yog‘inlar taqsimotiga relyef shakllari ta’sir etadi. Nam havo massalarining yo‘nalishiga ro‘para turgan tog‘ yonbag‘irlariga ko‘p yog‘in tushadi.
- C) Materik iqlimining tarkib topishida Quyosh radiatsiyasi, relyef, havo massalari, okean oqimlari muhim rol o‘ynaydi. Materik oltita iqlim mintaqasida joylashgan. Tog‘larida balandlik iqlim mintaqalari mavjud.
- D) Quruqlikning shimoldan janubga qarab uzoq masofaga cho‘zilganligi issiqlikning taqsimlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Iyul oyining o‘rtacha harorati shimolida +12 °C ga va janubida +28 °C ga teng.

**11.** Polvontosh va Xo'jaobod konlaridan qanday foydali qazilma qazib olinadi?

- A) oltin
- B) toshko'mir
- C) neft
- D) qo'ng'ir ko'mir

**12. Matnni o'qing.**

"Okrugni har ikki tomonidan o'rab turgan tog'lar paleozoy erasining ohaktosh, kristall va slanes kabi tog' jinslaridan tarkib topgan. Bu jinslar gersin tog' hosil bo'lish jarayonida burmalangan. Tog'lari so'nggi nurash oqibatida pasayib, daryo irmoqlari, soylar hamda fizik nurash ta'sirida yassilanib, qiymalanib, hozirgi qiyofasi shakllangan".

**Matndagi ma'lumotlar qaysi okrugga tegishli ekanligini toping.**

- A) O'rta Zarafshon
- B) Surxondaryo
- C) Farg'ona
- D) Chirchiq-Ohangaron

**13.** Ustyurt platosining shimoliy qismida qaysi obyekt joylashgan?

- A) Qorabovur ko'tarilmasi
- B) Kassarma ko'tarilmasi
- C) Shimoliy Ustyurt bukilmasi
- D) Asaka-Ovdon bukilmasi

**14.** O'zbekistonning qaysi hududlarida sho'rxok va sho'r tuproqlar tarqalgan?

- A) Ustyurt platosi, Qizilqumdag'i past tog'lar, Nurota tog' etaklari
- B) Mirzacho'l, Markaziy Farg'ona, Qarshi cho'llari
- C) Quyi Amudaryo, Qizilqumdag'i past tog'lar, Nurota tog' etaklari
- D) Qizilqum, Mirzacho'l, Markaziy Farg'ona

**15.** O'rta Zarafshon tabiiy geografik okrugiga oid ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Okrugning geologik va yer yuzasining tuzilishi, iqlimi, yerosti suvlaring xususiyatlari bir xil bo'limganligi sababli uning tuproqlari ham xilma-xil. Okrugning yerosti suvlari chuqur bo'lgan tekislik qismida va adirlarda och tusli, oddiy (tipik) va to'q tusli bo'z tuproqlar tarqalgan.
- B) Okrugda tuproqlar uning relyefiga, yotqiziqlariga va yerosti suvlari qayirlarida qadimdan sug'oriladigan bo'z-voha tuproqlari, quyi qayirlarida grunt suvi yuza bo'lgan joylarda biroz sho'rslashgan botqoq-o'tloq tuproqlari uchraydi.

C) Okrugning okean sathidan 500 metr balandlikkacha bo'lgan joylarida och bo'z tuproq tarqalgan. Yerosti suvlari yer betiga yaqin bo'lgan joylarda sho'rslashgan bo'z tuproq uchraydi. Daryolarning qayirlarida alluvial-o'tloq va botqoq tuproqlar uchrasa, janubiy qismidagi qum massivlarida qumli va qumloq tuproqlar uchraydi.

D) Okrugda geografik o'rniga ko'ra, och va tipik bo'z tuproqlar tarqalgan bo'lib, ular orasidagi chegara taxminan 450 metr mutlaq balandlikdan o'tadi. Okrugning asosiy qismini sug'orma och bo'z va bo'z-o'tloq tuproqlar egallagan.

**16. Quyidagi shaharlardan qaysi birida oyna va marmar ishlab chiqariladi?**

- A) Yangiyo'l
- B) Bekobod
- C) Chirchiq
- D) G'azalkent

**17.** "Viloyat o'zining yoqilg'i-energetika majmuasiga ega emas. Unga tabiiy gaz Buxoro viloyatidan, elektr quvvati esa Sirdaryo viloyatidan keltiriladi". Ushbu ta'rif mamlakatimizdagi qaysi viloyatga tegishli?

- A) Samarqand
- B) Jizzax
- C) Qashqadaryo
- D) Navoiy

**18.** Yevropa qit'asidagi qaysi davlatga yiliga 70 mln. dan ortiq kishi turistik sayohat qiladi?

- A) Italiya
- B) Germaniya
- C) Fransiya
- D) Ispaniya

**19.** Suyultirilgan gaz ishlab chiqarishda yetakchi bo'lgan davlatlarni toping.

- 1) Qatar; 2) Saudiya Arabistoni; 3) Avstraliya;
- 4) Eron; 5) Malayziya; 6) Kuvayt.
- A) 1, 4, 6
- B) 2, 4, 6
- C) 1, 3, 5
- D) 2, 3, 5

**20.** "Iqtisodiyoti yuqori sur'atlar bilan o'sayotgan yangi industrial mamlakatlardan biri. Sanoati, asosan, ko'ptarmoqli mashinasozlikka ixtisoslashgan (elektronika, maishiy texnika, avtomobil ishlab chiqarish). Shu bilan birga, neft, neft-kimyo va metallurgiya sanoatlari ham yaxshi rivojlangan". Ushbu ta'rif qaysi davlatga tegishli?

- A) Indoneziya

- B) Malayziya
- C) Tailand
- D) Singapur

**21.** Yevropadagi qaysi subregion dengiz turizmning dunyodagi eng yirik rayoni hisoblanadi?

- A) Shimoliy Yevropa
- B) G'arbiy Yevropa
- C) Sharqiy Yevropa
- D) Janubiy Yevropa

**22. Matnni o'qing.**

"Mamlakat tabiiy sharoiti xilma-xil, tabiiy resurslariga ancha boy. Uning hududida sayyoramizdagi eng baland tog'lar, qalin o'rmonlar, savannalar bilan qoplangan parchalangan yassi tog'liklar, bepoyon qumli cho'llarni uchratish mumkin. Temir, marganes, xrom, titan, uran, toriy rudalari, ko'mir, olmos, turli qimmatbaho toshlar zaxiralari ancha kattadir".

**Matndagi ma'lumotlar qaysi mamlakatga tegishli ekanligini toping.**

- A) Xitoy
- B) Braziliya
- C) Hindiston
- D) Indoneziya

**23. Matnni o'qing.**

"Subregion qishloq xo'jaligida dehqonchilik ustun soha bo'lib, sholi asosiy ekin turi hisoblanadi. Bundan tashqari, mintaqada davlatlarida turli ziravorlar, choy, kofe, kopra, geveya kabilar ham yetishtiriladi. Chorvachilikda baliqchilik rivojlangan. Geografik o'rin xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, subregion davlatlari uchum suv va avtomobil transporti asosiy transport turlari hisoblanadi". **Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi subregionga oid ekanligini toping.**

- A) Janubi-sharqiy Osiyo
- B) Sharqiy Afrika
- C) Janubiy Osiyo
- D) Sharqiy Osiyo

**24.** Italiya sanoatiga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Sanoatining yetakchi tarmoqlari qatoriga avtomobilsozlik, aviasozlik, qishloq xo'jalik mashinasozligi, kimyo va farmasevtika sanoatlari kiradi. Elektr energiyasi, asosan, IESlarda ishlab chiqariladi.
- B) Sanoatining yetakchi tarmoqlari qatoriga mashinasozlik, kimyo, farmasevtika, ko'mir, qora metallurgiya, oziq-ovqat sanoati kiradi. Mashinasozlik tarmoqlaridan esa stanoksozlik,

avtomobilsozlik, elektrotexnika, mikroelektronika, kemasozlik, aviakosmik mashinasozlik kabi tarmoqlari juda yuqori darajada rivojlangan.

C) Sanoati tarkibida mashinasozlik, kimyo va neft-kimyo, qora va rangli metallurgiya hamda oziq-ovqat sanoatlari yetakchi ahamiyatga ega. Mamlakat avtomobil, kema, samolyot, dastgohlar, mineral o'g'itlar, soda, polimerlar, parfyumeriya va kosmetika, vino, pishloq va boshqa ko'plab mahsulotlarni ishlab chiqarish va jahon bozoriga yetkazishda alohida ajralib turadi.

D) Sanoatining yetakchi tarmoqlari sifatida mashinasozlik (ayniqsa avtomobilsozlik va maishiy texnika ishlab chiqarish), kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoatlari ajralib turadilar. Mamlakat yengil avtomobil, motosikl, muzlatgich, velosiped, jun gazlamalari, kiyim-kechak, poyabzal, zaytun moyi, pishloq, vino, meva va tomat konservalari kabi mahsulotlarning jahondagi eng ko'zga ko'ringan eksportyorlaridan biridir.

**25. Tuzilishi inson tomonidan jamiyat manfaatlarini ko'zlagan va ilmiy asoslangan holda oqilonla o'zgartirilgan landshaftlarga nima deyiladi?**

- A) shartli o'zgartirilmagan
- B) kuchsiz o'zgartirilgan
- C) kuchli o'zgartirilgan
- D) madaniy

**26. Ko'lbo'yli megalopoli qaysi davlatda joylashgan?**

- A) Yaponiya
- B) Kanada
- C) Xitoy
- D) AQSH


**27. Paydo bo'lish davriga ko'ra dunyoviy dinlar orasida qaysi din eng yoshi hisoblanadi?**

- A) xristian
- B) buddizm
- C) induizm
- D) islom

**28. Urbanizatsiyaning qaysi bosqichida ayniqsa, yirik shaharlar tez o'sishni boshlaydi, bunda eng yirik shahar boshqalarga nisbatan ancha ilgarilab ketadi?**

- A) rurbanizatsiya
- B) rivojlangan urbanizatsiya
- C) yetuk urbanizatsiya
- D) shakllanayotgan urbanizatsiya

**29.** Ushbu yozuvsız xaritada 2 va 4 raqamlar bilan qaysi dengizlar tasvirlangan?



- A) Bellinsgauzen va Ueddell
- B) Amundsen va Hamdo'stlik
- C) Ueddell va Amundsen
- D) Bellinsgauzen va Ross

**30.** Shimoliy Amerika materigining yozuvsız xaritasida Markaziy tekisliklar va Meksikayoni pasttekisligi qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?



- A) 3, 4
- B) 1, 3
- C) 2, 4
- D) 1, 4

**31.** O'rta Osiyoning yozuvsız xaritasida 3 raqami bilan Qozog'iston tabiiy geografik kichik o'lkasining qaysi tabiiy geografik rayoni tasvirlangan?



- A) Sharqiy Qozog'iston tog'lari
- B) Janubiy Qozog'iston cho'llari
- C) Markaziy Tyanshan
- D) Shimoliy Tyanshan

**32.** Qashqadaryo tabiiy geografik okrugining yozuvsız xaritasida Oqsuv va Langar daryolari qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?



- A) 2, 3
- B) 1, 4
- C) 1, 3
- D) 2, 4

**33.** Quyidagi jadvaldan noto'g'ri berilgan qatorlarni belgilang.

Nº	Botiq nomi	Qaysi okeanga tegishli
1	Shimoli-g'arbiy	Atlantika
2	Chili	Tinch
3	G'arbiy Avstraliya	Tinch
4	Somali	Hind
5	Braziliya	Tinch
6	Shimoliy Amerika	Atlantika

- A) 1, 3, 6
- B) 2, 4, 6
- C) 1, 3, 5
- D) 2, 4, 5

**34.** Quyidagi tog' tizmalari va ularning eng baland joyi necha metr ekanligini mos ravishda belgilang.

Nº	Tog' tizmalari	Variantlar	Balandligi, metr
1	Talas Olatovi	a	4236
2	Ugom	b	4299
3	Piskom	c	4484


- A) 1-c, 2-b, 3-a
- B) 1-a, 2-c, 3-b
- C) 1-b, 2-c, 3-a
- D) 1-c, 2-a, 3-b

**35.** Yevropa davlatlari va ularning qaysi subregionga tegishli ekanligi mos ravishda to'g'ri keltirilg'an javobni toping.

Nº	Davlatlar	Variantlar	Subregion
1	Litva	a	G'arbiy Yevropa
2	Avstriya	b	Shimoliy Yevropa
3	Malta	c	Sharqiy Yevropa
4	Vengriya	d	Janubiy Yevropa

- A) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b
- B) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a
- C) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c
- D) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a

**36.** Quyidagi chizmada gorizontallar har 200 metrdan o'tkazilgan bo'lsa, A nuqtaning mutlaq balandligini toping.




- A) 2000 m
- B) 1800 m
- C) 2200 m
- D) 1600 m

**37.** Rimda (I soat mintaqasi) soat  $22^{55}$  bo'lsa, Reykyavikda (XXIII soat mintaqasi) soat necha bo'ladi?

- A)  $01^{55}$
- B)  $00^{25}$
- C)  $20^{55}$
- D)  $21^{25}$

**38.** Quyidagi chizmadan foydalanib, havo haroratining sutkalik amplitudasini aniqlang.



- A)  $15^{\circ}\text{C}$
- B)  $13^{\circ}\text{C}$
- C)  $25^{\circ}\text{C}$
- D)  $11^{\circ}\text{C}$


**39.** Vulqon konusidan otilib chiqqan lava harorati  $+150^{\circ}\text{C}$  ga teng bo'lsa, lava qancha chuqurlikdan chiqayotganligini aniqlang.

- A) 4,1 km
- B) 4,8 km
- C) 4,5 km
- D) 4,7 km

**40.** Afrika materigining qaysi o'lklalarida milliy bog' va qo'riqxonalar ko'p?

- A) G'arbiy va Janubiy Afrika
- B) Sharqiy va G'arbiy Afrika
- C) Sharqiy va Janubiy Afrika
- D) Shimoliy va Janubiy Afrika

**41.** Ushbu diagrammaning 1-ustunidagi ko'rsatkich qaysi viloyatning umumiy maydoniga tegishli ekanligini aniqlang (ming km kv hisobida)?



A) Navoiy

B) Buxoro

C) Jizzax

D) Qashqadaryo

**42.** Yevropaning qaysi davlatlarida qora metallurgiya sanoati rivojlangan?

A) Vengriya, Shvetsiya

B) Fransiya, Ruminiya

C) Buyuk Britaniya, Germaniya

D) Italiya, Gretsya

**43.** Turkmanistonning aholi zichligi 2018-yil holatiga ko‘ra 12 kishi/km<sup>2</sup> ni, maydoni esa

491,2 ming km<sup>2</sup> ni tashkil qildi. 2018-yil holatiga ko‘ra Turkmaniston aholisi qanchani tashkil qilgan?

A) 5 886,9 ming

B) 5 902,1 ming

C) 5 894,4 ming

D) 5 915,6 ming

**44.** 2021-yil holatiga ko‘ra, Urgut tumanining aholisi 519 ming kishini, shahar aholisi 218 ming kishini tashkil qildi. Ohangaron tumanining urbanizatsiya darajasini toping.

A) 42 %

B) 41,3 %

C) 43,1 %

D) 40,8 %

**45.** Qachon Fransiyaning Versal shahrida Birinchi jahon urushi tugashi munosabati bilan shartnomalar imzolanishi bilan geosiyosatda Versal davri boshlandi?

A) 1919-yil 6-may

B) 1918-yil 17-oktabr

C) 1919-yil 28-iyun

D) 1918-yil 3-sentabr